

**JAZO TAYINLASHDA HISOBGA OLINADIGAN HOLATLAR
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI**

NormetovTohirjonXomitovich

ChirchiqOliy tank qo 'mondonlikmuhandislikbilimyurti

Gumanitarfanlarkafedrasikatta'o'qituvchisi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlashda hisobga olinishi shart bo'lgan holatlar hamda uchraydigan ayrim muammolar yoritilgan. Jinoyat qonunining muhim prinsiplarining buzilishi, ushbu holatlarda xorijiy davlatlar soha mutaxassislari fikrlari, jinoyat huquqida jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar haqida fikrlar bildirilgan.

Kali so'zlar: liberallashtirish, jinoyat, jazo, sud, qilmish, axloq, odob, ayb shakllari, huquqiy ta'sir choralari, jinoiy faoliyat va h.k.

Аннотация. В данной статье рассматриваются обстоятельства, которые необходимо учитывать при определении наказания лицу, совершившему преступление, а также некоторые возникающие при этом проблемы, нарушения важных принципов уголовного права, мнения экспертов зарубежных стран по этим делам, а также обстоятельства, которые учитываются при определении наказания в уголовном праве.

Ключевые слова: либерализация, преступление, наказание, суд, поступок, мораль, этикет, формы вины, правовые меры, преступная деятельность и т. д.

“Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda, eng oliy qadriyat bo'lishi lozim.Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston uchun «Inson qadri va xalq manfaati, hamma narsadan ustundir! Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda ushbu tamoyillar aniq ifoda etilishi, o'zining mukammal huquqiy yechimini topishi zarur”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

**Sh.Mirziyoyev**

Mamlakatimizda mustalikka erishgandan so'ng sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda inson, uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada so'z ketganda davlatimiz birinchi Prezidenti tomonidan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da "shuni alohida qayd etish lozimki, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonpavrlarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi", deb ta'kidlanganlarini eslab o'tish joiz.

Ma'lumki jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. O'z navbatida jinoyat qonunining muhim prinsiplaridan biri bo'lib odillik prinsipining mohiyatiga ko'ra, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

O'z-o'zidan aynan bitta jinoyat sodir qilgan barcha shaxsga ham aynan bir xil jazo tayinlash maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanmaydi. Chunki, jinoyat sodir etishda aybning shakli, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyat sodir etish usuli va sabablari, jinoyat sodir qilishda ishtirok etganlik darajasi, shuningdek jinoyat sordir qilgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi va boshqa qator holatlar ham mavjudki, bunday holatlar bir xil turdagi ikkita jinoyat sodir etgan ikkita shaxsga nisbatan aynan bir jazo tayinlash imkonini bermaydi. Bunday holatlarning jinoyat qonunida mustahkamlanishi mazkur jinoyat qonunida qanchalik darajada odillik prinsipining ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Aytaylik, ikkita shaxs o'g'irlik jinoyati sodir qilishda ayblanayotgan, biri qimor o'yinida yutqazib qo'ygan pulni to'lash uchun, ikkinchisi muhtojlikdan – og'ir kasal onasiga dori sotib olish uchun o'g'irlik qilgan yoxud ulardan biri voyaga yetmagan,



ikkinchisi xavfli retsdivist bo'lsa, ularga nisbatan nisbatan bir xil jazo tayinlash, qonunning adolat prinsiplariga ham, insonparvarlik prinsiplariga ham zid bo'ladi.

Bu haqda so'z ketganda birinchi prezidentimiz I.Karimov tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, jinoyatlarni belgilash qoidalarining Jinoyat kodeksimizning umumiy yo'nalishini tom ma'noda o'zgartirishga va huquqiy demokratik davlat tamoyillariga moslashtirishga imkon beradi [1-2].

Таъкидлаш жоизки, адолатли жазо тайинланиши ундан кўзланган мақсадларга—маҳкумни ахлоқан тузатиш, маҳкум ва бошқа шахслар томонидан янги жиноятлар содир этилишининг олдини олишга эришиш самарадорлигини оширишга хизмаи қилади [2 45].

Шунингдек, ҳуқуқшунос олим М.Усмоналиевнинг таъкидлашича, асоссиз равишда оғир жазо чорасини тайинлаш субъектда адолатсизликдан норозилик, адолат ва қонунга ишончсизлик ҳиссини вужудга келтиради. Бундай ҳолат ҳам жазонинг мақсадига эришишга тўсиқ бўлиб қолади. Энг ёмони, Жиноят кодексида назарда тутилган одиллик принципи бузилади.[3- 13].

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganiga qaramay odillik prinsipi o'z kuchini yo'qotmadi, hamda jazo tayinlash bilan bog'liq masalalarda jazo tayinlashdahi sobga olinadigan holatlar doirasini qat'iy belgilab qo'ydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 54-moddasining ikkinchi qismida sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyatini va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishni mustahkamladi.

Ta'kidlash joizki, jinoyat huquqida jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar huquqshunoslarning ilmiy doirasidagi bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, bugungi kunga qadar jazo tayinlashda sud tomonidan hisobga olinadigan holatlar doirasi borasida qat'iy yagona fikr mavjud emas. Bu borada bir guruh olimlar jazo



tayinlashda hisobga olinadigan holatlar doirasini aniq belgilab berish lozim deb hisoblaydilar.

Xorijiy davlatlar olimlarining bu boradagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz ularda ham jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar masalasiga yondashuv turlicha ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Bunda jinoyatlar, jumladan, V.M.Lebedovning umumiy tahriri ostida chop etilgan Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksiga sharhlarda jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarga adolatli va maqsadga muvofiq jazoning kafolati sifatida ta’rif berishar ekan, jinoyat qonunidan kelib chiqib, jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarni alohida ajratib ko‘rsatadilar[4-67-69].

Bunda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri hisobga olinadigan holatlarni alohida ajratib ko‘rsatadilar. Bunda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri hisobga olinishini ta’kidlay borib, asosiy e’tiborni qasd yo‘naltirilgan ijtimoiy munosabatga qaratadilar hamda bunda sodir etilgan jinoyatlarning usuli, motivi, aybning shakli kvalifikatsiyalovchi belgilari, ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy ahamiyati muhim ahamiyatga egaligini qayd etadilar. Ijtimoiy xavflilik darajasining ahamiyati haqida so‘z ketganda olimlar mazkur kategoriyaning har bir shaxsning jinoyat sodir etishdagi rolini aniqlash, jinoyat ishtirokchilarining ishtirokchilik shaklini belgilash bilan bog‘liqligini qayd etib, ijtimoiy xavflilik darajasini ham jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlardan biri ekanligini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, olimlar jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar qatoriga jinoyat sodir etish bosqichi, jinoyat sodir qilgan jinoyatchining shaxsini o‘rganish, uning ilgari sudlanganligi, og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarining mavjudligi bilan birga jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning oilaviy sharoiti ham hisobga olinishini ta’kidlab o‘tadilar.

Rossiyalik huquqshunos olimlar, jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarni tahlil qilar ekan, jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar zaruratini quyidagi ikki omil bilan asoslaydilar:

birinchidan, ta’sir choralarini tanlashning qonuniy chegarasini aniqlashtirish;



ikkinchidan, sud jazo tayinlashda inkor eta olmaydigan omillarni aniqlash.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, mazkur guruhdagi omillar jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlar sifatida quyidagilarni sanab o'tadilar.

- jinoyatning ijtimoiy xavflilik xarakteri va darajasi;

- aybdorning shaxsi, uning psixologik va biologik xususiyatlari, sudlanganligi, jinoyat sodir qilgan holatda alkogol ichimliklar ta'sirida bo'lganligi, jamoat tartibini buzishi;

- jazoni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari;

- mahkumning oilaviy sharoiti, ya'ni bunda mahkumning oilada yagona boquvchi ekanligi, uning qaramog'idagi keska ota-onasi va voyaga yetmagan bolalari borligi;

- sodir etilgan jinoyatning yakuniga yetkazilganligi yoki jinoyat sodir etgan shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinoyatning tugallanmay qolganligi[4- 74-77].

Huquqshunos V.K.Duyunov ma'sul muharrirligida tayyorlangan Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksiga sharhlarda esa, yana bir guruh olimlar jazo tayinlashning umumiy asoslariga sud tomonidan har bir sudlanuvchiga jazo tayinlashda majburiy amal qilishi lozim bo'lgan qonunda belgilangan asosiy talablar sifatida ta'rif berib o'tar ekanlar, bunda jazo tayinlashning umumiy asoslari qonuniylik, jazoning odilligi va individualligi tan olinishini ta'kidlab o'tadilar [5- 52-55].

O'z navbatida esa, jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida quyidagi holatlarni sanab o'tadilar:

- jazoning maksimal muddati muayyan jinoyat uchun belgilangan chegaradan o'tmasligi;

- jazoning individuallashtirilganligini ayni paytda ushbu guruhga mansub olimlar mazkur holatlarga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakterini, aybdorning shaxsini, shuningdek, barcha ijtimoiy xususiyatlarni, barcha og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni, aybdor shaxsning oilaviy sharoitlarini [6-456-467].



Yana bir huquqshunos A.V.Naumovningqayd etishicha, jazo eng avvalo, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteridan kelib chiqib, ilgari sudlanganligi, og‘irlantiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, oilaviy ahvoli jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida keltirib o‘tadi [7- 125].

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarni kuzatar ekanmiz, ular doirasi turlicha ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, RF jinoyat kodeksining 60-moddasida jazo tayinlashning umumiy qoidalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra sud jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri aybdorning shaxsi, shu jumladan jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni, shuningdek mahkumning oilaviy hayotini e‘tiborga olib jazo tayinlaydi.

Gruziya Jinoyat kodeksining 53-moddasida jazo tayinlashning umumiy qoidalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra jazo tayinlashda jazoning og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari, sodir etilgan jinoyatning motivi va maqsadlari, aniqlangan huquqqa qarshi iroda aybdorning jabrlanuvchi bilan yarashganligi, birinchi navbatda yetkazilgan zararni qoplanganligi, aybdorning sodir etgan qilmishidan keyingi xulqi, aybdorning oldingi hayotidagi shaxsiy va iqtisodiy sharoiti, majburiyatlarini buzilishi chorralari va xarakteri, turlari usullari va huquqqa qarshi harakatni amalga oshirish natijasi e‘tiborga olinishi belgilangan.

Ukraina Jinoyat kodeksining 65-moddasiga binoan, jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning og‘irlik darajasi, aybdorning shaxsi va jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari hisobga olinsa, Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 62-moddasida esa, sud jazo tayinlashda jazoni individuallashtirish prinsipidan kelib chiqib, ya‘ni sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri, qilmishning motivi va maqsadi, aybdorning shaxsi, yetkazilgan zarar miqdori, jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari, ish bo‘yicha jabrlanuvchining ayblanuvchi haqidagi shaxsiy fikri hisobga olinib, hukmda tanlangan jazo chorasi asoslanibberiladi.

Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasiga binoan, jazo tayinlashda jinoyatning og‘irligi va xarakteri, qilmishning motivi va maqsadi, oqibati,



aybdorning shaxsi, jazo og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari, shuningdek oilaviy ahvoli va tayinlanadigan jazoning ta'siri hisobga olinishi belgilangan.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasida jazo tayinlashdajinoyatning ijtimoiy xavlilik darajasi va xarakteri, aybdorning shaxsi, shu jumladan jazoni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari, shuningdek mahkumning tuzatishda tayinlanadigan jazoni ta'siri va oilaviy hayoti hisobga olinishi mustahkamlangan.

Endi o'zimizda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasida sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlanishi belgilangan.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasida jazo tayinlashning umumiy asoslari belgilangan bo'lib, unga muvofiq sud tomonidan jazo tayinlashda quyidagilar hisobga olinadi:

- sudir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi;
- qilmishning sababi;
- yetkazilgan zararning xususiyati va miqdori;
- jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar.

Ayni paytda ta'kidlab o'tish joizki, Oliy sud Plenumining qarorlarida ushbu holatlar izohlanar ekan, jazo tayinlashda inobatga olinadigan har bir holatni batafsil yoritib bergan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki Oliy sudPlenumining "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida sudlar tomonidan jinoyat uchun jazoning to'g'ri tayinlanishi odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolati ekanligi ta'kidlanib, bunda asosiy e'tibor mahkumni axloqan tuzatish, mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishish samaradorligini oshirishga qaratilishi belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. Adolat- qonun ustivorligida. "Xalq so'zi", 2001 yil 30 avgust.



2. O‘zbekistong Respublikasi Oliy sudi Axborotnomasi. T.: 2023й В 46
3. M. Usmonaliyev. Jazo tayinlash. –T.: Yangi asr avlodi, 2003.- В.13.
4. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Отв.ред. В.М.Лебедев-3 -е изд.2004.-С 67-69.
5. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (постатейный). В.К.Дуюнов и др,2005.-С 52-55.
6. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации -2-е изд. 2004. - С 53.
7. Наумов В.А. Практика применения Уголовного кодекса Российской Федерации: комментарий судебной практике и доктринальное толкование. 2005.- С 125.